XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94), (76) 221-74-81)

2023 - yil 13 - yanvar VI-65-19-8-0-K/23 Surxondaryo viloyati hokimligi

Surxondaryo viloyatida 2023-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatiga nisbatan koeffitsiyent qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-moddasiga asosan Surxondaryo viloyatida 2023-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatiga nisbatan koeffitsiyent qo‘llash yuzasidan viloyat Soliq boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Sh.Yadgarovning bergan hisoboti tinglanib, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohaza va takliflardan kelib chiqib, xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi:**

1. Viloyat Soliq boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Sh.Yadgarovning O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-moddasiga asosan Surxondaryo viloyatida 2023-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatiga nisbatan koeffitsiyentini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat Moliya bosh boshqarmasi (J.Normo‘minov), viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov)ga:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m uchun mutloq miqdorda belgilangan minimal qiymatda bo‘lishini nazorat qilish;

binolar va inshootlarning 1 kv.m uchun mutloq miqdor Toshkent shahrida 2,5 mln. so‘m, Nukus shahri va viloyat markazlarida 1,5 mln. so‘m va qolgan hududlarda 1,0 mln. so‘mdan belgilangan minimal qiymatda bo‘lishi yuzasidan Surxondaryo televideniyesi bilan hamkorlikda press klublar va chiqishlarni amalga oshirish hamda televideniye orqali ommaga taqdim etish;

minimal qiymat bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq qishloq joylarida keskin oshib ketishining oldini olish maqsadida, xalq deputatlari viloyat Kengashi belgilagan minimal qiymatga tumanlarning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, 0,5 gacha kamaytiruvchi koeffitsiyent kiritish;

yuridik shaxslar tomonidan mavjud mol-mulklari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

2023-yil yanvar oyida 2022-yil davomida mol-mulkiga solingan soliqlarini belgilangan muddatda va miqdorda faollik bilan to‘lagan viloyatdagi barcha yuridik shaxslarni mahalliy budjet hisobidan moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish to‘g‘risida tegishli xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga takliflar kiritsin;

2023-yil yanvar-fevral oylarida soliq qonunchiligiga oid yangi tartib-qoidalar va soliq imtiyozlari to‘g‘risida mahallalardagi hokim yordamchilari ishtirokida alohida tasdiqlangan reja-grafik asosida seminarlar o‘tkazsin;

har chorak yakunida yuridik shaxslarga hisoblangan mol-mulk solig‘i va undirilgan boshqa soliqlari to‘g‘risida xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot berib borish vazifasi yuklansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatga nisbatan koeffitsiyent miqdori 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari, viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.To‘rayev), viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), “Ishonch” televideniyesi (A.Qodirov), “Surxon tongi” va “Zarya Surxana” gazetalari birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga mazkur loyihani amalga oshirishdan maqsad hamda uning viloyatimiz va tuman (shahar)lar iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida televideniye, radio, rasmiy sahifalar orqali ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Sessiya raisi **A.R.Choriyev**

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-65-19-8-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyatida 2023-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq solishda minimal qiymatga qo‘llaniladigan koeffitsiyent MOQDORI

№	Hudud nomi	Qo‘llaniladigan koeffitsiyent miqdori
1	Termiz shahri	1,00
2	Angor tumani	0,80
3	Oltinsoy tumani	0,70
4	Boysun tumani	0,60
5	Muzrabot tumani	0,60
6	Denov tumani	1,00
7	Jarqo‘rg‘on tumani	0,90
8	Qumqo‘rg‘on tumani	0,80
9	Qiziriq tumani	0,70
10	Sariosiyo tumani	0,80
11	Termiz tumani	0,90
12	Sherobod tumani	0,80
13	Sho‘rchi tumani	0,90
14	Uzun tumani	0,80
15	Bandixon tumani	0,60